

борни қаратиш зарур. Бунинг учун эса аҳолини рўйхатга олиш мақсадга мувофиқ бўлади;

– вилоят туманларининг аҳолиси зич ҳудудлари ўрганилиб, ушбу ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш дастурини тайёрлашда меҳнат ресурсларининг меҳнатга лаёқатли қисми ўрганилиб, уларни кўпроқ қайси соҳаларга

малакадан келиб чиқиб, шу соҳаларни ривожлантиришга қаратиш;

– тадбиркорликни амалга ошириш мақсадида ҳар бир ҳудуд марказларида кичик маслаҳат хоналарини ташкил этиш;  
– меҳнат бўлимлари билан ташкилотлар ўртасида алоқани янада мустаҳкамлаш.

**Манба ва фойдаланилган адабиётлар:**

1. “Аҳолининг бандлиги тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни, 2-модда, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Экономика и социология труда. Учебник. / Под ред. д.э.н., проф А.Я.Кибанова. – М.: Инфра-М, 2010. С. 75.
3. Одегов Ю.Г., Руденко Г.Г. Экономика труда. Учебник. – М.: Волтерс-Клувер, 2011. С. 631.
4. Язык бизнеса. Под общ. ред. В.А.Чжена. – Т., 1995. С. 159.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида”ги қонуни. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: Mehnat, 2009. 223-б.
7. Толаметова З.А. Иқтисодиётни модернизациялаш жараёнида меҳнат бозорини ривожлантириш йўналишлари. – Т.: Иқтисодиёт, 2014.
8. Тагаев Б., Матрасулов Д., Исмаилов И. Фаол бандлик сиёсати – иқтисодий барқарорлик ва кучли ижтимоий ҳимоя сифатида. Мақола. [www.review.uz/](http://www.review.uz/) 29.11.2021.
9. Зуфарова Г. Демографик вазиятнинг меҳнат ресурсларининг иш билан бандлигига таъсири. Мақола. Иқтисод ва молия. 2015. 11-б.
10. Rasulov Sh.Sh. (2021). Analysis of economic reforms increasing labour resources in the republic of uzbekistan. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 390-396.



**RESPUBLIKAMIZDA AHOЛИ DAROMADLARINING SHAKLLANISH MANBALARI**

**Ilyosova Dilbar Ismoil qizi -**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Statistika” mutaxassisligi 2-kurs magistri

[doi https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss2/a37](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss2/a37)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi aholi daromadlarining shakllanish manbalari darajasini statistik o'rganishga qaratilgan. Mamlakatimiz aholisining pul daromadlari va xarajatlarini statistik usullarda o'rganish, aholi turmush darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni statistik baholash bo'yicha ilmiy-nazariy tavsiyalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ish haqi, daromad, moddiy yordam, nafaqa, naqd pul, meros solig'i, sug'urta to'lovlari, renta, dividend, turar joy.

**ИСТОЧНИК ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ В НАШЕЙ РЕСПУБЛИКЕ**

**Илёсова Дилбар Исмаил қизи -**  
Ташкентский государственный экономический университет  
Магистр 2 курса по специальности «Статистика»

**Аннотация.** Данная статья направлена на статистическое изучение уровня источников формирования доходов населения Республики Узбекистан. Разработаны научно-теоретические и практические рекомендации по статистическим методам изучения доходов и расходов населения страны, статистической оценки факторов, влияющих на повышение уровня жизни населения.

**Ключевые слова:** заработная плата, доход, материальная помощь, пособие, денежные средства, налог на наследство, страховые выплаты, renta, дивиденды, жильё.

**SOURCE FORMATION OF INCOME OF THE POPULATION IN OUR REPUBLIC**

**Ilyosova Dilbar Ismoil qizi -**  
Tashkent State Economic University  
2-course Master of “Statistics” specialty

**Annotation.** This article is aimed at statistical study of the level of sources of formation of income of the population of the Republic of Uzbekistan. Scientific-theoretical recommendations and practical recommendations on statistical methods of studying the income and expenditure of the population of the country, statistical assessment of the factors influencing the improvement of living standards have been developed.

**Keywords:** salary, income, material assistance, pension, cash, inheritance tax, insurance payments, renta, dividend, accommodation.

**Kirish.** Bozor munosabatlarining asosiy tamoyillaridan biri respublika aholisini kuchli ijtimoiy himoyalash sanaladi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanish bosqichida ham inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash hayotiy zaruriyatdir. Yangilanish va taraqqiyotdagi O'zbekiston modelining bosh ustuvor yo'nalishi zamirida inson manfaatlari yotadi va kuchli ijtimoiy siyosat yuritish markaziy o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, global moliyaviy inqiroz sharoitida respublikamizda aholining turli qatlamlarini himoyalash ustuvor vazifa hisoblanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Aholi farovonligini oshirish maqsadida joriy yilda ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori o'tgan yillarga nisbatan sezilarli ravishda oshirildi".

Statistik tahlillarimiz ko'rsatishicha, so'nggi yillarda jon boshiga to'g'ri keladigan eng muhim oziq-ovqat tovarlari bo'yicha iste'mol hajmi muttasil o'sib bormoqda, ayni vaqtda nooziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish va xizmatlar uchun to'lanadigan sarf-xarajatlar miqdori ham sezilarli ravishda ko'paymoqda.

Yurtimizdagi oilalarni uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan tovarlar bilan ta'minlash borasidagi ahvol ham tubdan o'zgardi. Xonadonlarni muzlatkich, konditsioner, shaxsiy kompyuter, televizor, mobil telefon va boshqa zamonaviy maishiy texnika vositalari bilan ta'minlash darajasi oshmoqda. Jahon iqtisodiyotining globallashuv sharoitida aholi turmush darajasini statistik usullar yordamida baholashga zarurat tug'ilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda aholining turmush darajasini obyektiv statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy-statistik tahlil qilish, aholi pul daromadlarining tashkil topish manbalari va xarajatlarining tasniflanishini maxsus statistik usullarda o'rganish, pul daromadlari va xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni statistik baholash va xarajatlar tasnifini statistik tahlil etish, iste'mol va iste'mol talablarining qondirilish darajasini statistik ma'lumotlar asosida haqqoniy talqin etish dolzarb masala hisoblanmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Aholi turmush darajasini baholash va bu boradagi izlanishlar XX asrning 20-yillarida boshlanib, bu borada V.N.Salin, V.I. Rutgayzer, V.F. Mayer, N.I.Buzlyakov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularning ilmiy izlanishlarida aholi turmush darajasi o'z mam-lakatlari aholisining turmush tarzi, ishlab chiqaruvchi kuchlarining joylashuvi hamda rivojlanishini hisobga olib, ilmiy tadqiq etilgan. Bularning barchasi aholi turmush darajasini o'rganish sohasida bo'layotgan izlanish su'ratlariga, ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Aholi turmush darajasini baholash muammolarini mahalliy olimlardan Q.Abdurahmonov, Yo.Abdullayev, X.Abulqosimov, A.Vahobov, G.Saido-

va, S.G'ulomov, B.G'oyibnazarov, E.Akramov, X.Muxitdinov, A.O'lmasov, R.Xasanov, Sh.Shodmonov, M.Xakimova, D.Rahimova, N.Zokirova va boshqalar o'z asarlarida keng bayon etganlar.

V.N. Salin: "Aholi turmush darajasi aholining iste'moli qondirilishining moddiy imkoniyatlarini tavsiflaydi. U ijtimoiy hayotning turli ijtimoiy jihatlarini: mehnat sharoiti, aholi daromadlari va xarajatlari darajasi va tuzilmasi, bo'sh vaqtdan foydalanish, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at va hokazolarning rivojlanish darajasini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy hayotning bu ijtimoiy tomonlarini miqdoriy tavsiflash ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar yordamida amalga oshiriladi hamda aholi turmush darajasi va ijtimoiy rivojlanishini statistik o'rganish predmeti hisoblanadi", - deb ta'riflaydi [1].

V.I.Rutgayzer Aholining pul daromadlarini tahlil qilish o'z-o'zidan ularning moddiy ne'matlar va xizmatlardan foydalanish darajasi, pul jamg'armalari ko'rsatkichlari bilan o'zaro aloqasini nazarda tutadi va bularga qiladigan xarajatlarini ham statistik o'rganishni talab etadi. Bu tahlilni mukammallashtirish vazifasi aholi yoki oilaning turli maqsadlari uchun qilgan xarajatlarini asosli ravishda ilmiy o'rganishni talab etadi [2].

Yo.Abdullayev ta'kidlaganidek, Aholi daromadlari oila a'zolari tomonidan muayyan davrda olingan pul va natural ko'rinishdagi mablag'lar qiymati yig'indisini ifodalaydi. Har doim talabda ehtiyojlar darajasi va tarkibi ortib, uning daromadlari miqdoriga bevosita bog'liq ravishda ta'sir ko'rsatadi [3].

Q.X.Abdurahmonov aholining turmush darajasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi" [4].

Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda "aholi turmush darajasi" tushunchasiga xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan turli mazmundagi ta'riflar ishlab chiqilgan. Masalan, M.G.Nazarov tahriri asosida chop etilgan "Ijtimoiy-iqtisodiy statistika kursi" kitobida "Aholi turmush darajasi insonlarning hayot faoliyati, eng avvalo, iste'mol sohasidagi real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari yig'indisini ifodalovchi murakkab va ko'p qirrali kategoriya bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim tavsifi hisoblanadi" deb ta'riflanadi [5].

I.I.Eliseyeva ta'kidlaganidek, O'zbekiston hududlari aholisining pul daromadlari darajasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi sezilarli tabaqalanishning mavjudligi bilan baholanadi. Bu bir qancha sabablar bilan bog'liq. Ulardan biri strategik ahamiyatga molik tabiiy xomashyo resurslari konlarining notekis joylashganligidir: odatda har bir bunday kon yaqinida tegishli qayta ishlash zavodi bunyodga keladi [6].

N.Zokirovaning fikricha, aholi pul daromadlari va iste'mol narxлари o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida iste'mol narxлари o'sishidan aholi daromadlari elastiklik koeffitsiyentini hisoblash mumkin. Bunda fikrimizcha, ikkala elastiklik xususida gapirish mumkin: bir tomondan, daromadlarning ortishi iste'mol narxlarining oshishi ish haqi, nafaqa va tushumlarning oshishiga olib keladi [7].

O'zbek milliy statistikasining ham nazariy, ham amaliy tomondan shakllanishida ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qilgan, prof. N.M.Soatov tahriri ostida chop etilgan "Statistika asoslari" darsligida "Aholi turmush darajasi sotsial-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyoji qondirilishi hamda sotsial turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi" deb ta'rif berilgan [8].

Q.X.Abdurahmonov va boshqalar "Aholi statistikasi" nomli o'quv qo'llanmada "Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi" deb ta'rif berishgan [9].

Respublikamizda bugungi kunda aholining pul daromadlari asosiy manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ish haqi;
- turli mulkchilikka asoslangan korxonalar-dan olinadigan ish haqi ko'rinishidagi tushumlar (moddiy yordam, korxonadan bo'shab ketishda beriladigan to'lovlar va h.k.);
- nafaqalar, stipendiyalar;
- mulkdan olinadigan daromadlar (turar joy, ko'chmas mulk, yer va boshqa aktivlarni ijaraga berishdan olinadigan foiz, renta, dividend, daromadlar);
- xorijiy mamlakatlardan olinadigan daromadlar (ish haqi, nafaqa, stipendiya, grantlarning yuborilishi, xayriya, insonparvarlik yordami va shu kabilar).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida ilmiy tahlilning umumiy uslublari, shuningdek, maxsus statistik uslublar: tanlanma kuzatish, anketalar orqali tekshirish, statistik guruhlash, iqtisodiy indekslar, dinamika qatorlari, korrelyatsion-regression tahlil va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

**Tahlili va natijalar.** Respublikamizda aholi turmush darajasini oshirish yo'llarini statistik usullarda tahlil qilish va baholash yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi va hal etildi:

- xorijiy, mahalliy olimlar va mutaxassislar-ni "aholi turmush darajasi" tushunchasiga bergan ilmiy ta'riflarini umumlashtirish, qiyosiy o'rganish, tahlil etish asosida mazkur tushunchaning ilmiy asoslangan yangi mazmunini ishlab chiqish;
- respublikamizda aholi turmush darajasini baholovchi asosiy yo'nalishlarni belgilash;
- aholini turmush darajasini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini o'rganish va statistik tahlil qilish;
- respublikamiz va uning hududlarida aholi pul daromadlari, ularning hosil bo'lish manbalarini statistik tahlil qilish;
- respublikamizdagi aholi pul xarajatlari va jamg'armalarini statistik tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasi aholisining turmush darajasidagi tafovutning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan va nazariy jihatdan o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi aholisining tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlarining oshishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlash;
- O'zbekiston Respublikasi aholisining joriy daromadlari, xarajatlari dinamikasi va darajasini statistik o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi aholisining ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida yangi ish o'rinishlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab berish;
- O'zbekiston Respublikasi aholisining daromadlari va turmush sifatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bizning fikrimizcha, aholi daromadlari turmush darajani ifodalovchi muhim ko'rsatkich bo'libgina qolmay, balki aholining ish bilan bandlik darajasi, ishchi kuchining harakati va taklifi hajmini aniqlovchi omil sifatida ham ko'riladi.

Aholining daromadlari ko'rsatkichlariga pul va natura shaklidagi daromadlarning barcha turlari, ularning manbalaridan qat'i nazar kiritiladi.

1- jadval

O'zbekistonda Aholi umumiy daromadlarining o'sish sur'atlari


	2018	2019	2020	2021
Aholining umumiy daromadlari	119,7	127,0	121,6	114,9
Aholining real umumiy daromadlari	109,3	108,1	106,1	101,8
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar	117,7	124,8	119,3	112,7
Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar	107,5	106,2	104,2	99,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston aholisining umumiy daromadlari o'sish sur'atlari 2018-yilda 119,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich pasayib, 114,9 foizni

tashkil etgan. Xuddi shuningdek, aholining umumiy real daromadlari 2018-yilda 109,3 foizdan 2021-yilda 101,8 foizga pasaygan. Boshqa qolgan ko'rsatkichlar ham pasayish tendensiyasiga ega.

Ijtimoiy soha iqtisodiyotiga bag'ishlangan adabiyotlarda ifodalanishicha, aholining umumiy daromadlari xuddi ish haqi kabi nominal va real ko'rinishda aniqlanishi mumkin. Nominal umumiy daromadlar qiymat shaklida ifodalangan joriy natu- ra va pul ko'rinishidagi daromadlardir. Real umu-

miy daromadlar esa shu daromadlarning sotib olini- shi mumkin bo'lgan moddiy boylik va xizmatlar yig'indisi (ya'ni iste'mol narxi indekslariga to'g'ri- langan nominal daromadlar) bilan ifodalanadi. Umumiy daromad hosil qilingach, uning muayyan qismi ixtiyoriy va majburiy to'lovlarga ishlatiladi.



1-rasm. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida (o'n ikki oy davomida), O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, ming so'm

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida (o'n ikki oy davomida) aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi Toshkent shahrida (30232,0 ming so'm) hamda Navoiy (24156,2 ming so'm), Buxoro (17847,1 ming so'm), Toshkent (16331,7 ming so'm) va Xorazm (15484,5 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida (o'n ikki oy davomida) aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi eng quyi ko'rsatkichlari Farg'ona (10929,8 ming so'm), Namangan (11329,1 ming so'm) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (11391,6 ming so'm) hamda Surxondaryo (11884,7 ming so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Umumiy daromadlar bilan ixtiyoriy, majburiy to'lovlar o'rtasidagi farq ixtiyoriy daromadlarda daromadlar ko'rsatkichi tarzida ifodalanadi. Aholi qo'lidagi daromadlar muvofiq keluvchi tovar va

xizmatlar bilan ta'minlanishi lozim bo'lgan to'lovga qodir talabning umumiy miqdorini ifodalaydi. Aholi qo'lidagi daromadlar yoki yakuniy iste'mol yoxud jamg'armaga ishlatilishi mumkin. Agar aholi qo'lida- gi daromadlar umumiy summasidan aholi olgan bepul va imtiyozli xizmatlar qiymati chegirilsa, aholi qo'lidagi haqiqiy daromadlar ko'rsatkichiga ega bo'linadi. Aholining moddiy farovonlik darajasiga ko'ra, tabaqalanishini o'rganish usullaridan biri aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari darajasi bo'yicha taqsimlash hisoblanadi. Bunda o'rtacha jon boshiga pul daromadlari hisobot davridagi pul daromadlari umumiy summasini mavjud aholi soniga bo'lib aniqlanadi.

Daromadlar darajasini tahlil etish, o'lchash va taxmin qilish uchun daromadlarning har xil turlari va statistik ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ulardan eng ko'p tarqalgan turlarini ko'rib chiqamiz.

2-jadval

Aholi daromadlari guruhlarini va ularning elementlari

No	Daromadlar guruhi	Daromad manbai
1.	Ish haqi	Asosiy ish joyidan daromad; Asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad; Harbiy xizmatchilar pul mablag'lari; Mavsumiy daromad; Boshqalar
2.	Mehnat natijalarini sotishdan daromad	Fermerlik daromadi; Shaxsiy tomorqadan daromad; Uy xo'jaligidan tushgan daromad; Gonorar; Boshqalar
3.	Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadi	Tadbirkorlik faoliyatidan daromadi; Boshqalar
4.	Kapitaldan daromad	Aksiyalardan olinadigan dividendlar; Ijara haqi; Kapital foydasi; Qo'yilmalardan olinadigan foizlar; Boshqalar
5.	Tavakkalchilikdan tushgan tushum	Sug'urta tavakkalchiligidan to'lov; Obligatsiyalar bo'yicha yutuqlar; Lotoreya yutuqlari; Sport musobaqalaridan yutuqlar; O'yinlardagi yutuqlar; Har xil konkurslardan yutuqlar; Boshqalar
6.	Qoldiriladigan daromad	Meros; Sovg'a; Homiylik yordami; Aliment; Muallif merosxo'rlariga qoladigan daromad; Boshqalar
7.	Ijtimoiy daromad	Vaqtincha ishga layoqatsizlik uchun to'lov; Homiladorlik va tug'ishdan keyingi to'lov; Bola tug'ilishidagi to'lov; Nogironlik nafaqalari; Boshqalar
8.	Qarz daromadlar	Bank kreditlari; Korxonalar kreditlari; Shaxslardan olingan qarz summalari; Boshqalar
9.	Boshqa daromadlar	Boshqalar



Aholi daromadlarining bir qismi moddiy farovonlikni ta'minlashga, boshqa qismi esa xizmatlardan foydalanish uchun sarflanadi. Ehtiyojlar tarkibiga pul daromadlarining oshishigina emas, balki aholi tarkibining o'zgarishi, uning ilmiy-madaniy saviyasining o'sishi ham ta'sir etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda aholi daromadlari foydalanish darajasiga qarab nominal, ixtiyordagi va real daromadlarga ajratiladi. Nominal daromadlar soliq, narxlarni hisobga olmagan holdagi pul daromadlari miqdorini tavsiflaydi. Ixtiyordagi daromadlar soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisobdan chiqarilgandan keyin nominal daromadlardir. Shaxsiy tomorqa xo'jaligi shaxsiy va oilaviy daromadlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Jamiyat rivojlanishining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy davrida shaxsiy tomorqa xo'jaligi aholining ba'zi guruhlari uchun asosiy daromad manbai bo'lib qoladi.

Oilaning umumiy daromadlarini tahlil etishda quyidagi ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi: ovqatlanish xarajatlari; nooziq-ovqatlarni sotib olish xarajatlari; maishiy xizmat, soliq, yig'imlar, to'lovlar xarajatlari; naqd pul, jamg'arma banklariga qo'yilgan jamg'armalar, chorva, parranda va boshqa tabiiy ko'payishi natijasida jamg'armalarning oshishi.

Shuningdek, ta'lim olish, tibbiy xizmat qiymati va uy-joy uchun dotatsiyalar ham, qo'shilgan umumiy daromadlar miqdori ham hisoblab chiqiladi. Bu ko'rsatkichlardan, odatda, xalqaro taqqoslashda foydalaniladi.

**Xulosa va takliflar.** Aholining ijtimoiy turmush sharoiti jamiyatning barcha a'zolariga mehnat qilish, dam olish, har tomonlama jismoniy va madaniy rivojlanishni ta'minlash hamda mehnat sharoitini yaxshi tashkil etish, kishilar salomatligi va mehnat qilish qobiliyatini saqlashni kafolatlash, vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy ta'mi-

not, nafaqalar bilan ta'minlash, nisbatan kam daromadli oilalarning ijtimoiy himoyalaniishini ifodalaydi. Turmush darajasi aholi hayot faoliyatining ma'lum bir qirrasiga to'g'risida tasavvur beradigan ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganish lozim. Aholining moddiy farovonlik darajasiga ko'ra, tabaqalanishini o'rganish usullaridan biri aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari darajasi bo'yicha taqsimlash hisoblanadi. Bunda o'rtacha jon boshiga pul daromadlari hisobot davridagi pul daromadlari umumiy summamini mavjud aholi soniga bo'lib aniqlanadi.

Bizning fikrimizcha, kelgusida aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda ish olib borilishi zarur:

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida kam ta'minlangan va balog'at yoshidagi bolalari bor oilalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Kam ta'minlangan va bolali oilalarga ijtimoiy yordam aniq berilishini kuchaytirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarishda fuqorolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari roli va mas'uliyatini oshirish zarur.

2. Korxonada tomonidan belgilangan ijtimoiy imtiyozlar va xizmatlarni ko'rsatish: xodimlar va ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatish, bepul ovqatlanish, mahsulotlarni imtiyozli baholarda sotish, tibbiy xizmat ko'rsatish, uy-joy bilan ta'minlash, dam olishni tashkil etish, xodimlarni qayta o'qitish va malakalarini oshirish va shu kabilar.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Салин В.Н. Статистика уровня жизни населения (Бакалавриат, Магистратура). Учебное пособие. 2019 г. – 189 с.
2. Рутгайзер В.А. Оценка стоимости бизнеса. 2007 г. – 448 стр.
3. Абдуллаев Ё.А. Макроиктисодий статистика. 100 савол ва жавоб. – Т.: Меҳнат, 1998. – 382 б.
4. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёти). Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: Меҳнат, 2016. – 610 б.
5. Nazarov M.G. Курс социально – экономической статистики. 2000 г. – 771 стр.
6. Елесева И.И. и др. Статистика. Учебник. – М.: Проспект, 2017. – 448 с.
7. Zokirova N. Инқироз: оқибатлар, бартараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. – Т.: Фан ва технология, 2009.
8. Soatov N.M. Statistika asoslari. Darslik. 2003. – 743 бем.
9. Abdurahmonov A. Aholi statistikasi. O'quv qo'llanma Darslik. – Т.: Iqtisodiyot, 2020-у.
10. Абдурахмонов Қ.Х., Тохирова Х.Т. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш. / Ўқув. қўл. ТДИУ, 2019.
11. "Уровень жизни населения 2020" статистик тўплами. – Т., 2020.
12. Abdurahmonov Q. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. – Т.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyoti jamg'armasi nashryoti, TDIU, 2019. – 159 b.
13. Рынок труда и доходы населения. / Под. Ред. Н.А.Волжина. – М.: ИИД "Филинь", 2018. – 278 с.
14. Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик – 2018. – Т.: Ўзбекистон, 2019.
15. Soatov N.M., Nabiyev X., Ayubjonov A. Statistika. Darslik. – Т.: Iqtisodiyot, 2019. – 543 б.
16. Ayubjonov A.H. Statistika nazariyasi. O'quv qo'llanma – Т.: Iqtisodiyot, 2021-у.
17. Soatov N.M., Ayubjonov A. Statistika nazariyasi. Darslik. – Т.: Iqtisodiyot, 2019-у.
18. Utarova M.A. Statistika tahlil. O'quv qo'llanma. – Т.: Iqtisodiyot, 2021-у.
19. Рынок труда и доходы населения. / Под. Ред. Н.А.Волжина. – М.: ИИД "Филинь", 2018. – 278 с.
20. Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, 2020.